

VII. KORXONALAR VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI

(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)


O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012- yil 25- sentabrdagi "Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri to'g'risidagi Nizomini tasdiqlash haqida" gi 274- son qaroriga muvofiq korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri bazasi vuritiladi

Korxonalar va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2022- yil 1- iyul holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

Korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida soni

(1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)

(dehqon va fermer xo'jaliklarisiz)




Yuridik shaxs:


Yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka yega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga yega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.

Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi,
(2022- yil 1-iyul holatiga ko'ra, birlikda)

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'tgan yilga nisbatan o'sish surati, savdo (121,0 %), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (116,7 %) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (115,9 %), qurilish (108,5 %), tashish va saqlash (108,4 %) sanoat (107,6 %), boshqa turdagi xizmatlar (105,1 %), axborot va aloqa (96,1 %) va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (29,7 %) sohalariga to'g'ri keladi.



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni
(1- iyul holatiga ko'ra, ming birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)




Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 2022- yil 1- iyul holatiga ko'ra 49 303 tani tashkil yetib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 4 355 taga yoki 109,7 % ga o'sgan. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga

nisbatan 32,3 % savdo, 21,0 % sanoat, 7,6 % qurilish, 5,4 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 4,6 % qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi, 3,5 % tashish va saqlash, 2,4 % axborot va aloqa, 2,4 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 20,7 % boshqa faoliyat turlari xissasiga to'g'ri keladi.

2022- yil 1-iyul holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar kesimida soni va o'sish surati, %

(dehqon va fermer xo'jaliklarisiz, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2022- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)




2022- yil 1- iyul holatiga 43 184 ta faoliyat ko'rsatayotgan tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar soni, shundan xususiy korxonalar - 11 422 ta, oilaviy korxonalar - 6 106 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyat - 24 945 ta, aksiyadorlik jamiyati - 53 ta, unitar korxonalar - 238 ta va boshqa turdagi korxonalar - 420 tani tashkil etadi.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni (1-iyul holatiga ko'ra, birlikda)




Yangi tashkil yetilgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni (yanvar-iyun oylarida)



2022- yil yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Farg'ona shahar (14,6 %), Qo'qon shahar (9,2 %), Marg'ilon shahar (6,0 %), Toshloq tumani (5,9 %), Dang'ara tumani (5,4 %), Oltiariq tumani (5,3 %), O'zbekiston tumani (5,0 %), Buvayda tumani (4,9 %), Quva tumani (4,9 %), Beshariq tumani (4,7 %), Farg'ona tumani (4,5 %), Rishton tumani (4,4 %), Bog'dod tumani (4,2 %), Uchko'prik tumani (4,1 %), Qo'shtepa tumani (4,1 %), Quvasoy shahar (3,7 %), Furqat tumani (3,3 %), Yozyovon tumani (3,0 %), So'x tumani (2,8 %), xissalariga to'g'ri keladi.


Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz, birlik)




Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, birlikda)




Hududlar bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari, birlikda)




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2022- yil 1- iyul holatiga ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 564 tani tashkil etdi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 60 taga yoki 111,9 %ga o'sgan.




Xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni



Hududlar kesimida jami faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar taqsimlanishi

(2022- yil 1- iyul holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, %da)



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida taqsimlanishi

(1- iyul holatiga ko'ra, yillar kesimida, birlikda)

	2018-yil	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil
Jami	234	348	433	494	552
<i>shu jumladan:</i>					
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	4	24	26	28	29
Sanoat	164	205	250	272	291
Qurilish	5	7	12	19	29
Savdo	29	61	76	100	113
Tashish va saqlash	4	6	12	14	14
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	9	13	15	13	15
Axborot va aloqa	2	4	4	4	5
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	6	7	9	9	10
Boshqa turlar	11	21	29	35	46

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining xududlar kesimida soni

(2022- yil 1-iyul holatiga, birlikda)


	Ro'yxatga olinganlar	2022- yil yanvar-iyun	
		yangi tashkil etilgan	tugatilgan
Viloyat bo'yicha	564	27	2
<i>shaharlar:</i>			
Farg'ona	178	11	2
Qo'qon	76	5	
Quvasoy	36	2	
Marg'ilon	29	1	
<i>tumanlar:</i>			
Oltiariq	25	1	
Qo'shtepa	9		
Bog'dod	16		
Buvayda	11		
Beshariq	11	1	
Quva	22		
Uchko'prik	21		
Rishton	12		
So'x	7		
Toshloq	19		
O'zbekiston	28	1	
Farg'ona	29	3	
Dang'ara	18		
Furqat	10		
Yozyovon	7	2	

Oilaviy korxonalar


Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2022- yilning 1-iyul xolatiga 6 590 tani tashkil etib, ulardan 6 106 tasi yoki 92,7 % faoliyat yuritmoqda.

Oilaviy korxonalarining yillar kesimidagi soni

(birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni,
(2022- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)



Oilaviy korxonalarining hududlar kesimida soni
(birlikda)

	Ro'yxatga olinganlar	2022- yil yanvar-iyun	
		yangi tashkil etilgan	tugatilgan
Viloyat bo'yicha	6 590	656	111
<i>shaharlar:</i>			
Farg'ona	663	49	8
Qo'qon	440	36	5
Quvasoy	299	38	9
Marg'ilon	457	15	7
<i>tumanlar:</i>			
Oltiariq	556	56	14
Qo'shtepa	181	14	4
Bog'dod	354	22	8
Buvayda	330	15	3
Beshariq	299	22	2
Quva	245	13	3
Uchko'prik	332	16	7
Rishton	632	72	12
So'x	113	19	2
Toshloq	252	27	1
O'zbekiston	437	72	2
Farg'ona	239	27	8
Dang'ara	392	101	5
Furqat	289	27	1
Yozyovon	80	15	10

